

## KAUZALLIK VA KAUZATIVLIKNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QIYOSIY TADQIQI

N. Shamuradova<sup>1</sup>

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada kauzallikning ingliz va o'zbek tilida ifodalanishi haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek ushbu maqolada kauzallik va kauzativlik borasida yetuk olimlarning fikrlari takidlab o'tilgan.

*Kalit so'zlar:* kauzativ qurilmalar, derivatsiya, kauzallik, sabab ergash gap.

*doi:* <https://doi.org/10.2024/qm76ab35>

Jahon tilshunosligida kauzallik borasida bajarilgan ko'plab izlanishlar singari o'zbek tilshunosligida ham bu sohada ma'lum bir darajada tadqiqotlar amalga oshirilgan. B.N.Turniyazovning "Kauzativ qurilmalar sintaktik derivatsiyasi" nomli monografiyasida [Turniyazov 2022], L.I.Sadullayevaning "Typological category of causative voice forms in Uzbek and English languages" maqolasida [Sadullayeva 2017], R.Rasulovning "O'zbek tilidagi holat fe'llari va ularning obligator valentliklari" nomli monografiyasida, J.Bo'ronovning "Ingliz va o'zbek tillari qiyosiy grammatikasi" darsligida kauzallikning ifodalanishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan bo'lib, ularning har biri ushbu hodisani turli jihatdan yoritib berishgan [Bo'ronov 1998].

Deyarli barcha ishlarda kauzallik tushunchasi tor nuqtayi nazardan tahlil qilingan bo'lib, ularda kauzallik sifatida bir ish-harakat ta'sirida vujudga kelgan boshqa bir ish-harakatning sababi ifodalanishini ta'kidlab o'tilgan bo'lib, tahlilda, asosan, semantik, leksik, morfologik, analitik nuqtai nazardan yondashilgan. Faqatgina B.N.Turniyazovning "Kauzativ qurilmalar sintaktik derivatsiyasi" nomli monografiyasida "kauzativlikni voqelantirayotgan har bir elementning tildagi va nutqdagi o'rnini, ularning semantik aspektini, kauzator, kauzant va konsekvent tushunchalarining munosabatlarini derivativ jihatdan" tadqiq etilgan [Turniyazov 2022, 18].

Aksariyat ishlarda kauzativlik tushunchasi, ta'kidlab o'tganimizdek, asosan, semantik, leksik, morfologik, analitik nuqtayi nazardan tekshirilgan va kauzativlikda bir shaxsning (buyuruvchining) ta'siri bilan boshqa shaxs tomonidan (bajaruvchi tomonidan) amalga oshirilgan harakatning sababi izohlangan. Bizningcha, kauzatsiyani faqat sabab ma'nosi bilan cheklab qo'yilishi maqsadga muvofiq emas. Zero, bir shaxsning (buyuruvchining) ta'siri bilan boshqa shaxs tomonidan amalga oshiriladigan harakat orqali faqat sabab ma'nosi emas, balki maqsad, natija, shart, undash, buyruq, iltimos, da'vat etish kabi ma'nolar ham ifodalanishi mumkin degan fikr ilgari suriladi [Turniyazov 2022, 20].

I.A.Shoroxova "Семантика каузативных глаголов в русском и польском языках" nomli kitobida kauzativlik tushunchasi nafaqat sabab ma'nosini balki

<sup>1</sup> Shamuradova Naima Muxtarovna, SamDCHTI Ingliz tili fakulteti-II, Ingliz tili nazriyasi va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

“bahona”, “asoslash”, “undash”, “holat”, “munosabat”, “daraja” kabi ma’nolarni ham ifodalashini ta’kidlaydi [Шорохова 2007, 19].

Demak, turli fikrlar kesishuvi kauzallikni chuqurroq o’rganishga bo’lgan ehtiyojni yanada oshiradi.

Kauzallikning turli tillarda turlicha ifodalanishini hisobga olgan holda ularni qiyosiy tipologik tahlil qilib ko’ramiz. Ba’zi tillarda faqat kauzativ fe’llar yordamida kauzallik yasaladi degan qarash ham mavjud. Lekin rus tilshunosi T.G.Xazagerov kauzativlar nafaqat “fe’l so’z turkumi asosida hatto ot va sifat so’z turkumlari asosida yasalishi mumkinligini izohlab o’tadi: *везти-возить* (tashimoq-tashitmoq), *отрезветь-отрезвить* (hushiga kelmoq, hushiga keltirmoq), *обезлюдеть-обезлюдить* (odamsiz bo’lib (huvillab) qolmoq odamsiz bo’lib (huvillatib) qoldirmoq) kabi [Хазарев 1998, 24].

Aytish kerakki, masalaga bunday yondashuv turkiy tillarga (ayrimlarini hisobga olmaganda) xos emas. Chunki turkiy tillarda, jumladan, o’zbek tilida fe’l yasovchi qo’shimchalar bilan uning kauzativ ma’no ifodalovchi, orttirma nisbatini hosil qiluvchi qo’shimchalarining chegarasi aniq sezilib turadi. Boshqacha aytganda, fe’l yasalishi yangi lug’aviy ma’noni ifodalashga xizmat qiladi, xolos. [Turniyazov 2022, 21]. Grammatik kategoriya esa umumlashgan grammatik ma’no bo’lib, u tilning qaysi morfologik tipga kirishini ko’rsatadi va o’z ifodasini so’zlarning o’zgarishida, gapda so’zlarning bog’lanishida topadi [Irisqulov, 1992, 154].

“O’zbek tilining mazmuniy sintaksisi” nomli monografiyada quyidagi jumladan biz tadqiq qilayotgan kauzallikga aloqador sabab valentligini ko’rishimiz mumkin: “...Shuning uchun ham fe’l valentliklariga bag’ishlangan fikrlarni umumlashtirgan holda, o’zbek tilida fe’llarning quyidagi valentliklarini ajratish tarafdorimiz: 1) subyekt; 2) obyekt; 3) maqsad; 4) payt; 5) o’rin; 6) holat; 7) sabab valentliklari” [Nurmonov, Mahmudov, Axmedov, Solixojayeva 1992, 59].

Bosh gapdan anglashilgan mazmun qanday sabablar asosida ro’y berishini yoki bermasligini ifodalovchi ergash gaplar sabab ergash gap hisoblanadi [Abduraxmanov 1996, 199-201].

Sabab ergash gapning bosh gap bilan munosabati ikki xil bo’lishi mumkin: ba’zi sabab ergash gapli qo’shma gaplarda sabab natija ma’nosi ifodalanadi. Ushbu holatda sabab ergash gap orqali ifodalansa, bosh gapda esa undan kelib chiqadigan natija ko’rsatiladi. Ikkinchi bir turida esa sabab ergash gap bosh gapni izohlab keladi. Ba’zan sabab voqeani birinchi o’ringa chiqarish, unga urg’u berish maqsadi bilan ham oldin ergash gap, keyin bosh gap keltiriladi [Maxmudov 1995, 209]. Quyidagi misollarda buning ifodasini yaqqol ko’rish mumkin.

(1) Kulish bilan kulmasdan tekkina jiddiyat saqlab turish orasida ham anchagina masofa bor. Shu uchun Razzoq So’fining kulishlari kulish deb bo’lmaydi (KK, 140);

(2) Siz, axir men bilan bir shapaloq yerni talashib, shu to’g’rida nari beri bo’lishib, shu tufayli shaharga kelib qolgan edingizku (KK, 12);

(3) Holbuki ko’ngil tashvishda va shu sababli talvasada (KK, 20);

Yuqorida keltirilgan misollar borasida takidlash joizki, deyarli barcha o’rinlarda shuning uchun ko’makchili qurilmasining keltirilgan so’z shakllari shu uchun, shu bois, shu sababli, shu tufayli kabi shakllari bilan bemalol almashtirib qo’llash mumkin.

Sabab ergash gapli qo’shma gaplardagi sabab munosabati subyektiv murakkablashuvi ham mumkin. Tillarda bunday murakkablashuv ko’proq nutq

egasi nazdida keltirilayotgan sababning aniq yoki noaniqligi, umumga ma'lum yoki noma'lumligi, taxminiyligi kabi subyektiv ma'no nozikliklarini gap mazmuniga kiritish hisobiga yuz beradi [Maxmudov 1995, 209].

Maxmudovning ushbu qarashlarini quyidagi misollar tahlilida ko'rib chiqamiz.

1. Xo'jayin -"Bugun ish juda muhim. Garnizon boshlig'i ishtirok etdi. Shuning uchun kech kelsam kerak (KK, 155) taxmini;

2. U o'zi ham erta bilandan beri shuni kutib o'tirmaydimi? Shu uchun yuvinib taranmaydimi? (KK, 141) noma'lum;

3. Nimaga germanlar Farangistonda qarishlab oldinga jiladi? Chunki Farangiston ham Germaniya singari sur'at degan narsani biladi (KK, 150) aniq;

Sababning aniq emasligi, so'zlovchi biror bir voqea-hodisani taxmin qilishi ma'nosi yuklatilgan holatlar sababni ifodalashdagi subyektiv murakkablashuvda boshqalariga nisbatan ko'proq uchraydi, ushbu hollarda -mi yuklamasi va -sa kerak birikmasi bilan ifodalanadi. Masalan:

Hozir uyda Otabek bo'lmag'ani uchunmi, nimadan bo'lsa ham har nuchuk Zaynab o'z uyida kuymalanishib yotar va mehmonlarni O'zbek oyimning tanho o'ziga tashlag'an edi (O'K, 328).

Kauzallik aniq kategoriyadir, ammo ba'zi til tizimlarida grammatik kategoriyaga kiritiladi. Masalan, ayrim tillarda kauzallikni ko'rsatuvchi kelishik yoki kauzallikni ko'rsatuvchi gap shakllari mavjud.

S.D.Kanselson kauzallik va sababiylik tushunchasini umuman ikkita alohida tushuncha sifatida qaraydi. Uning qarashicha, kauzallik bu ikkita alohida harakatning bajaruvchisini anglagan holda o'zaro muloqotga kirishuvi, sababiylik esa biror narsaga bog'liq har qanday harakatdir deydi [Кацнельсон 1972, 87].

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- [1]. Abduraxmanov G. O'zbek tili grammatikasi. – T.: O'qituvchi, 1996. - 199-201 b.
- [2]. Bo'ronov J. Ingliz va o'zbek tillar qiyosiy grammatikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1973. - 284 b.
- [3]. Cho'lpon A. Kecha va kunduz. – T.: Ilm-ziyo-zakovat, 2019. - 288 b.
- [4]. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 2020. - 154 b.
- [5]. Nurmonov A., Maxmudov N., Ahmedov A., Solixojyev S O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. - Toshkent: Fan, 1992. - 59 b.
- [6]. Qodiriy A. O'tgan Kunlar. – T.: Yangi asr avlod, 2012. - 442 b.
- [7]. Sadullayeva L.I. Typological category of causative voice forms in Uzbek and English languages (Типологическая категория форм каузатива в узбекском и английском языках) // Сопоставительная лингвистика, № 6, 2017.
- [8]. Turniyazov B.N. Kauzativ qurilmalar sintaktik derivatsiyasi. SamDChTI, 2022. - 252 b.
- [9]. Хазагеров Т.Г. Каузативность: статус и эволюция средств выражения в русском языке // Филологический вестник Ростовского государственного университета, № 1, 1998. - 24 с.
- [10]. Шорохова И.А. Семантика каузативных глаголов в русском и польском языках // Дис. канд. филол. наук. – Челябинск, 2007. - 198 с.